



## AQLI ZAIFLIKNING KLINIK SHAKLLARI

*Qahramonova Zebuniso Raufjon qizi,*

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti,*

*Defektologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aqli zaiflikning klinik shakllari haqida m'ulumot beriladi. Aqli zaiflikning klinik darajalari yengil, o'rta, og'ir va chuqur shakllari, maxsus pedagogik yondashuv orqali oddiy bilim va ko'nikmalarni egallash, kasbiy mehnat turlarini o'zlashtirib, mustaqil yashashga o'rgatishdan iboratligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Aqliy zaiflik, oligofreniya, intellektual rivojlanish buzilishi, endogen va ekzogen omillar, genetik va tashqi ta'sirlar, yengil, o'rta, og'ir, chuqur, nutq rivojlanishi buzilishi, maxsus ta'lim va reabilitatsiya, ijtimoiy moslashuv.

Aqli zaif deganda bosh miyaning organik jihatdan jarohatlanishi natijasida psixik, birinchi navbatda intellektual rivojlanishning turg'un pasayishi tushuniladi. Aqli zaif bolalar umumta'lim maktablari dasturini o'zlashtirishga qodir bo'lmaydilar. Og'ir darajadagi aqli zaif bolalar maktabda bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib ololmaydilar.

Aqli zaiflikning etiologiyasi turlichadir. Aqli zaiflik homilaning ona qornidaligida, tug'ilishda yoki ilk rivojlanish davrida markaziy nerv tizimining genetik buzilishlari, jarohatlar, asfiksiya, infeksiyalar, intoksikatsiyalar oqibatida kelib chiqadi.

Oligofreniyaning sabablari turlichadir. Etiologik belgilar bo'yicha oligofreniya ikkita asosiy guruhga ajratiladi:



1. Endogen (genetik) ta'sirlar oqibatida kelib chiqqan, irsiy patologiya bilan bog'langan yoki oilada mavjud bo'lgan yoki ushbu individda birinchi marta paydo bo'lgan oligofreniya;

2. Ekzogen ta'sirlar natijasida (homilalik yoki postnatal ontogenezning dastlabki bosqichlaridagi infeksiyalar, intoksikatsiyalar, bosh miya travmalari) kelib chiqqan oligofreniya.

Tekshirish metodlarining takomillashib borishi munosabati bilan nerv sistemasining genetik jarohatlanishi sabablariga katta ahamiyat berib kelinmoqda va aqli zaiflikning kelib chiqishidagi ko'p hollar ana shu sabablarga bog'liq deb ko'rsatilmoqda.

Hozirgi vaqtda genetik sabablarga ko'ra moddalar almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan aqli zaiflik ko'p kuzatilmoqda.

Oligofreniya intellektual yetishmovchilikning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra to'rt darajaga ajratiladi: yengil, o'rta, og'ir va chuqur.

#### **Yengil darajadagi aqli zaiflik.**

Diqqatini jamlay oladigan va yaxshi mexanik xotiraga ega bo'lgan yengil darajadagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) dastur bo'yicha ta'lim olishlari mumkin. Bu dastur aniq ko'rgazmali metodlarga asoslangan bo'lib, matematika, yozuv, o'qish va boshqa fanlarni o'zlashtirishni ancha yengillashtiradi, shuning

uchun bola uni 9 yil davomida egallay oladi. Keyinchalik bola kasbiy bilimlarni egallab, o'zi mustaqil ravishda mehnat qila oladi.

Yengil darajadagi aqli zaif bolalarda nutq malakalarini biroz kechikib o'zlashtiradilar, ularning ko'pchiligi nutqdan kundalik maqsadlarda foydalanish, suhbatni qo'llab turish va unda ishtirok etish ko'nikmalarini egallashga qodir bo'ladilar. Biroq ularning nutqiga fonetik buzilishlar, so'z boyligining cheklanganligi, so'zlarni yaxshi tushunmaslik, qo'llaniladigan so'zlarning ma'nosi



aniq bo'lmashligi xos bo'ladi. So'zlar muloqot vositasi sifatida to'liq qo'llanilmaydi.

Faol lug'at passiv lug'atdan ortda qolishi kuzatiladi. Aqli zaif odam o'zi gapirgandan ko'ra ko'proq tushunadi. Ko'rish, eshitish, kinestetik, taktil, hid sezish va ta'm bilish hislari (sezish) cheklanganligi va sekinlashgani atrof-muhitda mos oriyentirovkani qiyinlashtiradi. Idrokning yaxshi rivojlanmaganligi aqli zaif odamga uning o'zi va uni qurshab turgan narsalar haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishga halaqit beradi.

Yengil darajadagi aqliy zaiflik (intellektual kamchilik) odamning intellektual qobiliyatlari va moslashish qobiliyati o'rtacha darajadan past bo'lgan holatni anglatadi. Bu holat odamning o'qish, yozish, hisoblash, mantiqiy fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalar kabi sohalarda qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi. Yengil darajadagi aqliy zaiflik odatda bolalik davridanoq sezilib, rivojlanishning kechikishi yoki o'qish va o'rganish qobiliyatining pastligi orqali namoyon bo'ladi.

Sabablariga keladigan bo'lsak yengil darajadagi aqliy zaiflikning sabablari genetik omillar (masalan, Down sindromi), tug'ma nuqsonlar, homiladorlik davridagi infeksiyalar, tug'ruq paytidagi muammolar yoki bolalikdagi jiddiy kasalliklar bo'lishi mumkin.

#### **Alomatlari:**

- O'qish, yozish va hisoblashda qiyinchiliklar.
- Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatining pastligi.
- Ijtimoiy munosabatlarda qiyinchiliklar (masalan, do'stlik qilish yoki guruhda ishlash).
- Kundalik hayotda mustaqil ravishda qaror qabul qilishda qiynalish.

Yordam va olib boradigan ishlarimiz: Maxsus ta'lim: Bolalarga moslashtirilgan o'quv dasturlari va yordamchi pedagoglar orqali yordam berish.

Psixologik yordam: Psixologlar va terapevtlar bilan ishlash orqali ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni rivojlantirish.



Ota-onalar yordami: Oilada qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish va bolaning qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish.

Ijtimoiy moslashuv: Bolani jamiyatga moslashtirish uchun maxsus dasturlar va faoliyatlar tashkil etish.

Yengil darajadagi aqliy zaiflik odamning hayot sifatini pasaytirishi mumkin, ammo to'g'ri yondashuv va yordam bilan bunday odamlar mustaqil hayot kechirish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin.

### **O'rta darajadagi aqli zaiflik.**

O'rta darajadagi aqli zaiflik bilish jarayonlarining shakllanmaganligi bilan tavsiflanadi. Tafakkur konkret, ketma-ketlik yo'q. Bu kategoriyadagi shaxslarda

nutqni tushunish va undan foydalanish orqada qolib (3-5 yilga kechikib) rivojlanadi, bu sohada to'liq rivojlanish esa cheklangan. Ko'pincha nutq qo'pol nuqsonlar bilan kechadi. So'z boyligi kam, u ko'prok kundalik hayotda qo'llaniladigan so'z va iboralardan iborat. Aqli zaiflikning bu darajasidagi bolalarning deyarli barchasida harakatlar koordinatsiyasi, aniqligi va su'rati buzilgan bo'ladi. Harakatlar sekinlashgan, no'noq, bu narsa yugurish mexanizmining shakllanishiga va sakrashni o'rganishga to'sqinlik qiladi.

O'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari yaxshi rivojlanmagan. Motorika rivojlanishning qo'pol nuqsonlarida bu ko'nikmalar shakllana olmaydi.

Ko'pincha

barmoqlarning differensiyalangan nafis harakatlarini talab qiluvchi ko'nikmalar:

oyoq kiyim ipini bog'lash, tugmalarni qadash, kiyimdagi bog'ichlarni bog'lashni

o'zlashtirish qiyinchiliklar tug'diradi. O'rta darajadagi aqli zaif shaxslarda ma'lumotlar va tasavvurlar zahirasi juda kam. Tarqoq tushunchalar hosil bo'lishi



umuman yo'q yoki keskin chegaralangan. Idrok va xotiraning rivojlanganligi kuzatiladi.

O'rta darajadagi aqliy zaiflik (intellektual kamchilik) yengil darajadagiga qaraganda jiddiyroq bo'lib, odamning intellektual qobiliyatlari va moslashish qobiliyati sezilarli darajada past bo'ladi. Bu holat odamning kundalik hayotda mustaqil ravishda yashashi va ijtimoiy faoliyatini amalga oshirishi uchun qo'shimcha yordam va qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

Buning sabablari: genetik omillar, tug'ma nuqsonlar, homiladorlik davridagi infeksiyalar, va toksik moddalarga ta'sirlanish natijasida kelib chiqadi.

Tug'ruq paytidagi esa kislorod yetishmovchiligi yoki tug'ruq paytidagi jarohatlar sababli yuzaga keladi.

Bolalarda bolalikdagi kasalliklardan ham masalan, meningit yoki qattiq bosh jarohatlaridan kelib chiqadi.

Alomatlari esa intellektual qobiliyatning pastligi masalan, mantiqiy fikrlash, hisoblash va o'rganish qobiliyati cheklangan. Nutq va til rivojining kechikishi, oddiy gaplarni tushunish va ifodalashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi bilan farqlanadi. Oldini olishda esa maxsus ta'lim dasturlari ya'ni bolalarga moslashtirilgan o'quv dasturlari va yordamchi pedagoglar orqali yordam berish. Psixologik yordam, terapevtlar bilan ishlash orqali hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Oilada va jamiyatda qo'shimcha yordam ko'rsatish (masalan, qarovchi yoki hamroh tayinlash). Kasbiy mahoratni rivojlantirish ya'ni oddiy kasbiy ko'nikmalarni o'rgatish orqali ijtimoiy hayotga moslashishga yordam berish.

O'rta darajadagi aqliy zaiflik odamning hayot sifatini sezilarli darajada cheklashi mumkin, ammo to'g'ri yondashuv va yordam bilan bunday odamlar o'zlarining qobiliyatlarini rivojlantirib, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishlari mumkin. Oilaning qo'llab-quvvatlovchi muhiti va jamiyatning e'tibori bunday odamlar uchun juda muhimdir.

### **Og'ir darajadagi aqli zaiflik.**



Og'ir darajadagi aqli zaiflikda umulashtirishdan qobiliyat umuman shakllanmaydi. Ularning ko'pchiligida motor funksiyalarining rivojlanmaganligi, koordinatsiya buzilishi va boshqa birgalikda kechuvchi patologiyalar yaqqol namoyon bo'lishi kuzatiladi. Bu shaxslar o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradilar. Ularning bir qismi xatto tugma qadash va bog'ichlarni bog'lashni ham o'rgana olmaydilar. Og'ir darajadagi aqli zaif bolalarning ta'limiga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini mashq qilish va atrof-muhitda mo'ljal olishni o'rganish, muloqotni rivojlantirish bilan cheklanib qoladi. Shuni yodda saqlash muhimki, rivojlanish ortda qolishining og'ir ko'rinishi bilan xastalangan bolalar keyinchalik o'xshash vaziyatlarda qo'llashlari mumkin

bo'lgan ko'nikmalarni tushunishlari va rivojlantirishlari uchun ularga o'rgatilayotgan narsani bir necha bor takrorlash kerak. Odatda intellektual buzilishlar yaqqol nevrologik patologiyalar: falajlik, parezlar bilan birga kechadi. Ularda skelet, bosh suyagi, qo'l-oyoq, teri va ichki a'zolarining rivojlanishini buzilishi, displastik tana tuzilishi kuzatiladi. Bu patologiyaga ega odamlarga doimiy yordam va qo'llab-quvvatlash talab qilinadi.

### **Chuqur darajadagi aqli zaiflik.**

Bu bolalarda qo'yiladigan talablar yoki ko'rsatmalarni tushunish yoki bajarish qobiliyati cheklangan. Ularda diqqat, idrok, xotira rivojlanmagan. Tafakkurning elementar jarayonlari mavjud emas. Ko'pincha nutq o'rniga alohida tushunarsiz tovushlar yoki o'zlari ma'nosini tushunmaydigan so'zlarni qo'llaydilar. Bunday bolalarning ko'pchiligida motorikaning og'ir buzilishlari kuzatiladi, ular butkul harakatsiz yoki harakatlari keskin chegaralangan bo'ladi, siydik va axlatni ushlab tura olmaydilar, ular bilan faqat rudimentar shaklda muloqot qilish mumkin. Ular o'zlarining asosiy extiyojlari haqida qayg'ura olmaydilar yoki bu xususiyat juda sust va doimiy yordam va qo'llab-quvvatlashga muhtojlar. Extiyoj va harakatlar juda sodda, harakat reaksiyalari - tartibsiz, maqsadga yo'naltirilmagan, stereotip u



yoqdan bu yoqqa qimirlash, tashqi sababsiz qo'zg'alish kuzatiladi. Bulardan eng og'irlari yig'lamaydi, kulmaydi, atrofdagilarni tanimaydi. Hech narsa e'tiborlarini torta olmaydi. Ular fazoda mo'ljal olishga qiynaladilar. Faqatgina og'riqdan ta'sirlanadilar. Yuz ifodasi ma'nosiz. Iste'mol qilsa bo'ladigan va iste'mol qilsa bo'lmaydigan narsalarni ajrata olmaydilar. Nutq va imo-ishorani tushunmaydilar. G'azab affektlari, o'ziga zarar yetkazishga intilish kuzatiladi. Biroq, bunday bolalar bilan ishlansa, ularda tovushga, yorqin yorug'lik va rangga, harakatlanayotgan obyektlar va boshqa ta'sir qiluvchilarga e'tiborni tarbiyalashda ba'zi yutuqlarga erishish mumkin.

### **Aqli zaiflikning klinish shakllari.**

Aqli zaiflik deganda bosh miyaning erta jarohatlanishi yoki organik rivojlanmaganlik bilan bog'liq bo'lgan ruhiy va birinchi navbatda aqliy buzilishni tushunish kerak. Og'ir darajadagi aqli zaif bolalar umuman maktab bilimlarini va

malakalarini egallay olish qobiliyatiga ega emaslar. Aqli zaiflikning klinik-psixologik ko'rinishida asosiy buzilishi bo'lib bilish faoliyatining yaqqol yetishmasligi hisoblanadi. U ongning pastligi, umumlashtirish jarayonining shakllanmaganligi, psixik jarayonning marg'un bo'lmaganligi, xotiraning yetarli bo'lmasligi, diqqat va boshqa qator funksiyalardagi kamchiliklar borligi bilan xarakterlidir. Aqli zaiflik uchun nutqning rivojlanmaganligi xarakterlidir. Aqli zaiflik turli etiologiyaga ega, u markaziy nerv sistemasining genetik jaroxatlanishi, ichki patogen ta'sirlar, tug'ruq paytidagi jarohatlar, asfiksiya, infeksiyaning bola miyasiga ta'siri, jarohat va boshqalar bilan belgilanadi. Aytilganlardan kelib chiqqan holda aqli zaiflikka og'ir pedagogik qarovsizlikni kirgizish mumkin emas. Chunki uning ko'rinishlari yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga o'xshab aqli zaiflikka olib kelmaydi (aqliy nuqsonning mavjudligi, bilish qobiliyatining pasayishi, aqliy

funksiyalarning organik yetishmasligi hamda rivojlanishning biologik etiologiyasi). Shuningdek, aqli zaiflikka samotogen, psixogen, serebral,



konstitusional ko'rinisdagi psixik rivojlanishning orqada qolishini kiritib bo'lmaydi. Chunki bu shakllarning ijobiy dinamikasi xuddi yuqoridagi kabi aqli zaiflikning mezonlariga javob bermaydi. Aqli zaiflikning asosiy shakllarining keng tavsifi jarohatlanishning patogenezi va zararning vaqtinchalik ta'siri bilan uzviy bog'liq. Ontogenezning erta bosqichida (1,5-2 yoshgacha) markaziy nerv tizimining zararlanishida birinchi navbatda qobiq sistemasining shakllanishi zararlanadi. Zararlanishning morfologik ko'rinishida va nuqsonning klinik ko'rinishida rivojlanmaganlik ustunlik qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aqliy zaiflikning klinik shakllari bemorning intellektual va ijtimoiy moslashuv darajasiga qarab farqlanadi. Eng yengil shaklida bemorlar mustaqil hayot kechira olsa, og'ir shakllarda ularga doimiy yordam va nazorat talab etiladi. Erta tashxis va rehabilitatsiya muolajalari bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova "Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi" Toshkent 2016
2. Xasanov, M. A. (2015). Oligofreniya va aqli zaiflik: Teoriya va amaliyot. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Mirzayeva, D. R. (2017). Maxsus ta'lim va defektologiya. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
4. Abdullaeva, M. S. (2020). Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarga oid metodik qo'llanma. Toshkent: Ma'naviyat va ma'rifat nashriyoti.
5. Ismoilova, G. A. (2018). Defektologiyaning asosiy yo'nalishlari. Buxoro: Buxoro davlat pedagogika universiteti nashriyoti.
6. Hoshimov, U. Z. (2016). Aqli zaif bolalar uchun maxsus o'quv dasturlari. Tashkent: Milliy universitet nashriyoti